



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-dekabr

№ 2075

Sud tizimida mavjud bo'sh sudyalik lavozimlariga tanlov o'tkazish tartibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-noyabrdagi "Sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqqligini oshirish hamda sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-227-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq, Kengash

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-noyabrdagi PF-227-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sud tizimida mavjud bo'sh sudyalik lavozimlariga tanlov o'tkazish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Farmonning 9-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida 2025-yil 15-dekabrga qadar sud tizimida mavjud bo'sh rahbarlik va yuqori turuvchi sudyalik lavozimlariga oid ma'lumotlar hamda ularni egallash uchun tanlovda ishtirok etish tartibi hamda sud tizimida sudyalik lavozimlari, shu jumladan, rahbarlik va yuqori turuvchi sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash hamda tayinlash bo'yicha barcha bosqichlarga oid ma'lumotlar Kengashning rasmiy veb-saytida ochiq e'lon qilib borish amaliyoti joriy etilsin (N.Boboxonova, X.Sadikov, R.Nazarov).

3. Kengashning rasmiy veb-saytida Kengash qarorlarini e'lon qilib borish maxsus platformasi ishga tushirilsin (X.Sadikov, R.Nazarov).

4. Farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqib Kengash Reglamentiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

*Sudyalar oliy kengashining
2025-yil 5-dekabrdagi
2075-sonli qarori bilan tasdiqlangan*

Sud tizimida mavjud bo'sh sudyalik lavozimlariga tanlov o'tkazish TARTIBI

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Tartib sud tizimida mavjud bo'sh sudyalik lavozimlari (tumanlararo, tuman (shahar), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar, harbiy sudlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, shu jumladan rahbarlik lavozimlarini) uchun tanlovni o'tkazish hamda tanlovda ishtirok etish tartibini belgilaydi.

1.2. Sudyalik lavozimlariga tanlov muqobillik asosida o'tkaziladi.

Bo'sh sudyalik lavozimiga tanlovda kamida ikki nafar nomzod ishtirok etganda u muqobillik asosida o'tkazilgan hisoblanadi.

E'lon qilingan bo'sh sudyalik lavozimiga bir nafar nomzod ariza bergan taqdirda tanlov o'tkazilmaydi. Takror o'tkazilgan aynan shu bo'sh sudyalik lavozimiga boshqa ariza kelib tushmagan taqdirda tanlovni muqobillik asosida o'tkazmaslikka yo'l qo'yiladi.

1.3. Ushbu Tartib:

- a) ilk bor sudyalik lavozimiga tayinlash;
- b) amaldagi sudyalarni boshqa sudyalik lavozimiga tayinlash (saylash);
- v) rahbar sudyalik lavozimiga tayinlash;
- g) yuqori turuvchi sudlarga sudya etib tayinlash (saylash) bilan bog'liq tanlovlarga tatbiq etiladi.

1.4. Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash hamda tayinlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqichda tanlov e'lon qilinadi;

2-bosqichda tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan arizalar soni e'lon qilinadi;

3-bosqichda nomzodlar o'rganiladi va Kengash majlisi o'tkaziladi;

4-bosqichda Kengash qarori e'lon qilinadi.

1.5. Mavjud bo'sh sudyalik lavozimlariga oid ma'lumotlar va tanlovda ishtirok etish tartibi, shuningdek, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash hamda tayinlash bo'yicha barcha bosqichlarga oid ma'lumotlar Kengashning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

2. Tanlovni e'lon qilish

2.1. Tanlov bo'sh sudyalik va rahbar sudyalik lavozimlari uchun e'lon qilinadi.

2.2. Tanlov e'lonida quyidagilar ko'rsatiladi:

- a) sudning nomi va joylashgan hududi;

- b) bo'sh sudyalik lavozimi;
- v) ariza va hujjatlarni taqdim qilish muddati;
- g) nomzodlarga qo'yiladigan asosiy talablar;
- d) taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati.

2.3. Tanlovga ariza va tegishli hujjatlarni taqdim qilish muddati 5 ish kunidan oshmasligi lozim.

Mazkur muddat o'tgandan so'ng topshirilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

3. Tanlovda ishtirok etish

3.1. Sudyalik lavozimiga ariza bergan nomzod O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 67-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonuning 21-23-moddalarida belgilangan talablarga javob berishi lozim.

3.2. Ilk bor sudyalik lavozimiga tayinlanuvchi nomzodlar, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasini (Sudyalar oliy maktabini) tamomlagan bo'lishi shart. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim nomzodlar uchun istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin.

3.3. Nomzod tanlovda ko'rsatilgan muddat ichida doimiy yashash hududidagi tegishli sudyalar malaka hay'ati orqali Kengash raisi nomiga ariza va talab etilgan hujjatlarni taqdim etadi.

3.4. Ilk bor sudyalik lavozimiga nomzod yoki sobiq sudya tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ariza;
- pasport (ID karta) nusxasi;
- ish joyidan tavsifnoma;
- kamida uch nafar, qoida tariqasida yuqori malakali sudyalardan yoki nufuzli huquqshunoslardan fikrnoma;
- 3,5 x 4,5 o'lchamdagi rangli fotosurat (2 dona);
- so'rovnoma va tarjimai hol (qo'lyozma);
- mehnat daftarchasi nusxasi;
- shaxsiy varaqa (obyektivka) va yaqin qarindoshlar to'g'risida ma'lumotnoma;
- belgilangan shakldagi tibbiy ma'lumotnoma;
- Odil sudlov akademiyasi sertifikati yoki Sudyalar oliy maktabi diplomi nusxasi (qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

3.5. Ishlab turgan sudyalar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ariza;
- kamida uch nafar, qoida tariqasida yuqori malakali sudyalardan yoki nufuzli huquqshunoslardan fikrnoma;
- oxirgi uch yildagi faoliyati to'g'risida ish joyidan ma'lumotnoma (ish sifati);
- shaxsiy varaqa (obyektivka) va yaqin qarindoshlar to'g'risida ma'lumotnoma;
- xizmat (intizomiy javobgarligi to'g'risida) ma'lumotnomasi.

3.6. Ariza va tegishli hujjatlarni taqdim qilish muddati tugagandan so'ng sudyalarning tegishli malaka hay'atlari 3 ish kunida tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan arizalar va hujjatlarni Kengashga taqdim qiladi.

3.7. Tanlovni o'tkazish muddati tugagandan so'ng 10 ish kunida tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan arizalar soni Kengashning veb-saytida e'lon qilinadi.

4. Nomzodlarni o'rganish va Kengash majlisini o'tkazish

4.1. Kengashning Sudyalar korpusini shakllantirish shu'basi belgilangan muddat ichida hujjatlarning to'liqligi va qonuniy rasmiylashtirilganligini tekshiradi. Kamchiliklar aniqlangan taqdirda, nomzodga ularni bartaraf etish uchun qisqa muddat berilishi yoki hujjatlar belgilangan tartibda qaytarilishi mumkin.

4.2. Ilk bor sudyalik lavozimiga amaldagi qonunchilik asosida hal etiladigan amaliy keys yoki qisqa asoslantirilgan qaror loyihasini yozish vazifasi beriladi. Unda quyidagilar 10 ballik tizimda baholanadi:

- huquqiy fikr yuritish qobiliyati;

- tahlil qilish qobiliyati;

- normativ-huquqiy asosga tayanib xulosa chiqarish;

- aniq, tushunarli va saviyali bayon uslubi.

4.3. Sud inspeksiyasi nomzodning kasbiy, ishchanlik va shaxsiy fazilatlarini, ish joyidagi obro'-e'tiborini, intizomiy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligini, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni, shuningdek jamoatchilik fikrini o'rganib, xulosa tayyorlaydi.

4.4. Kengash majlisida Kotib nomzod haqida qisqacha axborot beradi, nomzod elektron билет dasturidan savol tanlaydi va Kengash a'zolari tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

4.5. Suhbat davomida nomzodning huquqiy bilim va dunyoqarashi darajasi, amaliy tajribasi, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, odil sudlov va sudya mustaqilligi bo'yicha tasavvuri, sud-huquq islohotlaridan xabardorlik darajasi baholanadi.

4.6. Kengash majlisida nomzod bo'yicha muhokama o'tkazilib, yopiq ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qilinadi. Qaror oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, betaraf ovoz berishga yo'l qo'yilmaydi.

4.7. Sudyalik lavozimiga munosib deb topilgan nomzodlar bo'yicha tegishli sudlarga tayinlash to'g'risida qaror qabul qilinadi yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga taqdimnoma kiritiladi.

4.8. Sudyani boshqa sudyalik lavozimiga ko'rsatishda qo'shimcha ravishda quyidagilar o'rganiladi:

- qabul qilgan sud qarorlarining barqarorligi;

- odil sudlovni amalga oshirish sifati;

- intizomiy choralar mavjudligi yoki mavjud emasligi;

- xizmat tekshiruvlari natijalari;

sudyaning kasbiy o'sishi, ilmiy va o'quv salohiyati mavjudligi va uni o'z faoliyatida qo'llay bilishi.

4.9. Sudyani yoki sobiq sudyani boshqa sudyalik yoki rahbarlik lavozimiga tayinlashda ham ushbu Tartibda nazarda tutilgan bosqichlar (hujjatlarni yig'ish, xulosa va tavsiyalar tayyorlash, sud inspeksiyasi tomonidan o'rganish, Kengashda suhbat va ovoz berish) qo'llaniladi.

5. Kengash qarorlarini e'lon qilish

5.1. Kengash qarori Kengash majlisi o'tkazilgandan so'ng keyingi kundan kechiktirmasdan Kengashning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida e'lon qilinadi.